



MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARGA TA'LIM BERISHDA KOMPETENSIYAVIY YONDASHUV

D.Iminova

Andijon davlat pedagogika instituti, o'qituvchisi

H. Yaqubjonova

Maktabgacha ta'lim yo'nalishi, 1- bosqich talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15469709>

ARTICLE INFO

Received: 5th May 2025

Accepted: 10th May 2025

Published: 20th May 2025

KEYWORDS

*ilk qadam, o'yin, kompetensiya,
bola, pedagog.*

ABSTRACT

Mazkur maqolada "Ilk qadam" davlat o'quv dasturining 3-4-boblari chuqur tahlil qilinadi hamda mazkur boblarning maktabgacha yoshdagi bolalarni har tomonlama rivojlantirishdagi o'rni yoritiladi. 3-bob "Maktabgacha yoshdagi bolalarga ta'lim berishda kompetensiyaviy yondashuv" bo'lib, bu bo'limda bolaning rivojlanish kompetensiyalari bayon etilgan.

Takomillashtirilgan "Ilk qadam" davlat o'quv Dasturi maktabgacha ta'lim tashkilotlari direktor va mutaxassislarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish instituti ilmiy kengashining 2021-yil 23-dekabrdagi 10-sonli bayonnomasi, O'zbekiston Respublikasi ta'lim vazirligining Muvofiqlashtiruvchi kengashining 2022-yil 4-fevraldagi 1-sonli bayonnomasi bilan tasdiqlangan va nashr qilish uchun tavsiya etilgan.

Davlat o'quv dasturi – bu bolaning barkamol shaxs sifatida shakllanishiga qaratilgan bo'lib, ta'lim va tarbiya jarayonining maqsadlari, vazifalari, tamoyillari, kutilayotgan natijalari, mazmuni va tashkil etilishini belgilaydigan tayanch hujjat hisoblanadi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarga ta'lim berishda kompetensiyaviy yondashuv o'sib borayotgan bola shaxsini hayotga tayyorlash, unda hayotiy muhim masalalarni hal qilish uchun zarur bo'lgan, axloqiy me'yor va qadriyatlarni o'zlashtirish, boshqa insonlar bilan muloqot qilish, "Men" obrazini qurish bilan bog'liq bo'lgan faoliyat usullarini shakllantirishga tayyorgarlikni ko'zda tutadi.¹

Maktabgacha ta'lim bolaning tayanch kompetensiyalarini rivojlantirish uchun asos bo'lib xizmat qiladi. U ta'limning keyingi bosqichlarida, shuningdek, butun hayoti davomida rivojlanib boradi.

Davlat o'quv dasturi kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan. Bu maktabgacha ta'lim va va tarbiya jarayonida bolalar faoliyatining turli-tuman turlarida shakllanadigan kompetensiyalarni rivojlantirishga qaratilgan.

Kompetensiya-bolaning bilim, ko'nikma, malaka va qadriyatlari majmuidir.

Maktabgacha yoshdagi bolalarga ta'lim berishda kompetensiyaviy yondashuv bolalarning bilish bilan bog'liq bo'lgan ehtiyojlari, muammolar va imkoniyatlarga samarali javob berish

¹ Karimova Moxichexra Rixsibayevna MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARGA TA'LIM BERISHDA KOMPETENSIYAVIY YONDASHUV. «Maktabgacha ta'lim tizimi xodimlarini rivojlantirish: amaliyot va xorijiy tajriba» respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi 2024 yil 23-24 may

qobiliyatini shakllantirish, axloqiy me'yorlar va qadriyatlarni rivojlantirish, boshqa insonlar bilan muloqot qilish, shaxsiy "Men" konsepsiyasini shakllantirishni o'z ichiga oladi.

Maktabgacha yoshdagi (6-7 yosh) bolaning tayanch kompetensiyalari quyidagilar:

- Kommunikativ.
- Ijtimoiy.
- Shaxsiy ("Men" kontsepsiyasini qurish).
- Bilish.

Bolaning rivojlanish sohalari kompetensiyalari:

Rivojlanish sohalari bo'yicha kompetensiyalarni o'zaro bog'liq holda takomillashtirish bolaning har tomonlama rivojlanishini ta'minlash, shuningdek, uning maktab ta'limi bo'lgan keyingi bosqichiga muammosiz o'tishi va unga tayyor bo'lishi, boshlang'ich ta'limda kompetensiyalarni shakllantirishi uchun zarurdir.

Kompetensiyalarni bola maktabgacha yosh davrida egallab borishini tarbiyachi-pedagoglarkuzatib nazorat qilib boradilar va shu orqali bolaning maktabga tayyorgarlik darajasi belgilanadishunday ekan, bola maktabgacha ta'lim tashkilotida har tomonlama maktabga tayyorlanadi. Maktabgacha ta'lim tashkilotida ta'lim va tarbiya jarayonining maqsadi bolaning tayanch kompetensiyalari va rivojlanish sohalarining kompetensiyalarini shakllantirish uchunshart-sharoitlarni yaratishdir. Rivojlanish sohalari bo'yicha kompetensiyalarni o'zaro bog'liq holda takomillashtirish bolaning har tomonlama rivojlanishini ta'minlash, shuningdek, uning maktab ta'limi bo'lgan keying bosqichiga muammosiz o'tishi va unga tayyor bo'lishi, boshlang'ich ta'limda kompetensiyalarni shakllantirishi uchun zarurdir.²

Bolaning kompetensiyalari bola rivojining quyidagi sohalarida belgilanadi:

- Jismoniy rivojlanish va sog'lom turmush tarzining shakllanishi;
- Ijtimoiy-hissiy rivojlanish;
- Nutq, muloqot, o'qish va yozish malakalari;
- Bilish jarayonining rivojlanishi;
- Ijodiy rivojlanish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Toshpo'latova SH. Q. Kayumova N.M A'zamova M.N. Maktabgacha ta'llim pedagogika.
2. Ilk qadam davlat o'quv dasturi 2022.
3. Sodiqova. Sh Maktabgacha pedagogika. O'quv qo'llanma. "Metodist nashriyoti" 2023.
4. Karimova M "MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARGA TA'LIM BERISHDA KOMPETENSIYAVIY YONDASHUV". «Maktabgacha ta'lim tizimi xodimlarini rivojlantirish: amaliyot va xorijiy tajriba» respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi 2024 yil 23-24 may

² Dexkambayeva Z MAKTABGACHA TA'LIM-TARBIYANI TASHKIL ETISHDA KOMPETENSIYAVIY YONDASHUVNING DOLZARBLIGI "Iqro" jurnali 2023